

TEXNOLOGIYA TA'LIMI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Hamdamova Nozima Muqimovna

Buxoro davlat universiteti doktoranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kundagi texnologiya ta'lifi o'qituvchilarini tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari bilan bir qatorda ta'lim-tarbiya ishlarini rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida asosiy bo'g'in hisoblangan umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim samaradorligini oshirish, o'qitish jarayonida ta'lim usullaridan unumli va oqilona foydalanish hamda bu usullarni takomillashtirish, yangiklarini izlab topish, qo'llash orqali boshqa fanlar qatori "Texnologiya" fani mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish yo'llari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, didaktika, shart-sharoit, ta'lim, bilim, bosqich, usul, ko'nikma, tarbiya, fan, taraqqiyot, metodika, o'qituvchi, o'quvchi, fikr, vaziyat, muammo, tashabbus, jarayon.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil ravishda amalga oshirilayotgan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi respublikamizda rivojlanish taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayonning amaliy natijalari bugungi kunda hayotimizning barcha sohalarida, eng muhimmi, xalqimizning ong-tafakkuri, intilish va harakatlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining "IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" bo'limida ta'lim va fan sohasini rivojlantirish bo'yicha vazifalar belgilangan.

Davlatimiz rahbari har bir viloyatga tashrifni doirasida o'tkazilgan yig'ilishlarda, turli uchrashuvlarda so'zlagan nutqi va suhbatlarida barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarni sog'lom turmush tarziga amal qilib yashash masalalariga kun tartibidagi dolzarb masala sifatida qarash zarurligini ta'kidlab kelmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Agar farzandlarimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada ularning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularni ilm-u

hunarga o‘rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo‘yishimiz hech gap emas”.

Ma’lumki, “Ta’lim to‘g‘risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlarda ham mamlakatimizda jahon andozalari talablariga javob bera oladigan yuksak malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash vazifalari belgilangan. Jumladan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi – ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, unio‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

Ta’lim-tarbiya ishlarini rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida asosiy bo‘g‘in hisoblangan umumiyl o‘rta ta’lim mакtablarida ta’lim samaradorligini oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Buning uchun esa o‘qitish jarayonida ta’lim usullaridan unumli va oqilona foydalanish hamda bu usullarni takomillashtirish, yangilarini izlab topish, qo‘llash orqali boshqa fanlar qatori “Texnologiya” fani mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirish ham talab qilinadi.

Bugungi kunda ta’lim-tarbiya sohasidagi asosiy dolzarb masala –ta’lim usullari va shakllarini yaxshi egallagan, ularni amalda qiyalmay qo‘llay oladigan malakali o‘qituvchilar, pedagog kadrlarni tayyorlashdan iborat bo‘lib qolmoqda. Chunki o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish, ularni kasblarga yo‘naltirishda o‘qituvchi shaxsi va uning faoliyatni alohida ahamiyatga egadir. Binobarin, o‘qituvchi olib boradigan ochiq muloqot tarzidagi mashg‘ulot jarayoni o‘rnini boshqa hech narsa bosa olmaydi. Shuning uchun ham ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish malakali, yetuk o‘qituvchi kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy mahoratini oshirishning muhim garovi hisoblanadi.

Muammo deb, o‘quv jarayonida hal qilinishi lozim bo‘lgan masala, vazifaga aytildi. Muammoli o‘qitish yoki muammoli ta’lim o‘qitishning tabiiy-samarali usuli, muammoli vaziyatlar hosil qilish orqali ilmiy bilimlar mantiqini namoyish qiladigan o‘qitish jarayoni hisoblanadi. Muammoli ta’lim XX asrning 70-80-yillarida olib borilgan izlanishlar va tajribalarning ijobiyl yakuni sifatida vujudga kelgan ta’lim shakli hisoblanadi. Muammoli ta’lim haqida fikr yuritganda, bu ta’lim o‘zi nima, uning qanday nazariy asoslari bor, u an’anaviy ta’limdan nimasi bilan farq qiladi, muammoli ta’limning maqsadi nima, muammoli ta’limni o‘qituvchi qanday amalga oshiradi, degan savollarga duch kelamiz.

Muammoli o‘qitish mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazishning muhim tomoni shundaki, bunda o‘qituvchi uning ham ta’limiy, ham tarbiyaviy funksiyasini yaxshi anglab olgan bo‘lishi talab qilinadi. O‘qituvchi hech qachon o‘quvchilarga tayyor yechimni bermasligi, balki ularga bilimlarni olishga yo‘nalish berishi, mashg‘ulotlar

va hayot faoliyatida zarur bo‘lgan axborot, voqeа va hodisalarni ongida qayta ishslashlariga yordam berishi lozim.

Shunday qilib, muammoli o‘qitishning vazifasi o‘quvchilar tomonidan bilimlar tizimi va aqliy hamda amaliy faoliyat usullarini samarali o‘zlashtirishga hamkorlik qilish, ularda oldin olingan bilimlarni yangi vaziyatda ijodiy qo‘llash malakasini hosil qilish, bilish mustaqilligini oshirish, o‘quv va tarbiya muammolarini mustaqil hal qilishni o‘rgatishdan iboratdir.

Muammoli ta’lim bu – o‘quvchiga beriladigan bilimning qaysi qismini, qanday yo‘l bilan berish muammosini samarali hal qilishga qaratilgan o‘qituvchi faoliyatidir. Muammoli ta’lim darsda birvaqtning o‘zida o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi harakati bo‘lib, u o‘quvchi shaxsidagi muhim belgi – ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Muammoli ta’lim – o‘quvchilarning erkin fikrlashlariga, o‘zining fikrini erkin bayon qila olishiga va fikrini yanada rivojlantirishlariga ta’sir etishdir. Bunda o‘quvchi diqqat bilan tinglashi, mustaqil va yolg‘iz fikrlashi, jamoa bo‘lib fikrlashi, tahlil qilishi, ko‘pchilik bo‘lib muhokama qilishi va to‘plangan fikrni bayon qila olishi kerak. Agar o‘qituvchi yangi mavzuni ta’sirli bayon qilib, ko‘rgazmalardan unumli foydalansa, bayon nihoyasida ayrim o‘quvchilar bilan ish olib borsa, o‘quv jarayoni samarali bo‘ldi yoki faol bo‘ldi, deb hisoblash mumkin. Ammo bu ta’lim usuli an’anaviy ta’lim berishdir.


Muammoli ta’lim o‘qituvchidan aniq harakat qilishni, darsning har bir daqiqasini hisobga olishni, ushbu vaqtda kerakli samara hosil bo‘lishi uchun o‘zining barcha imkoniyatlarini va mahoratini ishga solishni talab etadi. Bu masalani hal etishning muhim sharti o‘qituvchining bo‘lajak o‘quv mashg‘ulotiga tayyorgarligidir. Tayyorgarlik jarayonida muammoli ta’limning barcha ko‘rinishlarini hisobga olish va uning uslubini ishlab chiqish zarur. Muammoli ta’limga tayyorgarlik ko‘rishda o‘qituvchilar qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklarni yengishda o‘qituvchini innovatsion ijodiy laboratoriyasining ahamiyati katta. Ana shunday qiyinchiliklardan biri darsni muammoli tashkil qilish va muammoni o‘rganish usullarini tanlashdadir. Chunki tanlangan usul faqat o‘quv materialini o‘zlashtirishni ta’minlabgina qolmay, balki o‘quvchilar faoliyatida mustaqillikni ham ta’minalashi zarur.

Ikkinci qiyinchilik muammoli ta’limning ko‘rinishini aniqlashda yuzaga keladi, ya’ni, o‘qituvchi muammoni yechishga sinfdagi barcha o‘quvchilarni jalb qiladimi yoki vazifani ayrim guruh o‘quvchilariga bajartiradimi? Bu qiyinchilik o‘qituvchida muammoli vaziyat va muammoning bayoni haqidagi tasavvurlarning yetishmasligidan kelib chiqadi.

Uchinchi qiyinchilik esa darsda o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otish va uni uzlusiz rivojlantirib borishida ko‘rinadi. Chunki o‘quvchilar diqqatini bir nuqtaga muntazam to‘plashga o‘qituvchining tajribasi va mahorati yetmasligi mumkin.

Muammoli ta’lim haqida to‘plangan ma’lumotlarga asoslanib, shuni ta’kidlash lozimki, bu ta’lim turi ilmiy-uslubiy jihatdan uch ko‘rinishga ega (1-rasm).

Muammoli vaziyatni o‘quv mashg‘ulotlarining barchasida shakllantirish mumkin. Uni dars jarayonida qancha ko‘p shallantirish o‘qituvchining ijodiy yondashuviga bog‘liq. Muammoli vaziyatning ahamiyati shundaki, u o‘quvchilar diqqatini bir joyga (muammoga) qaratadi va o‘quvchilarni izlanishga, fikrlashga o‘rgatadi. Muammoli vaziyatni yaratganda o‘qituvchi o‘quvchilar o‘z diqqatlarini nimalarga qaratishi kerakligini aytishi maqsadga muvofiqdir.




1-rasm. Muammoli ta’limning tarkibiy qismlari i aytishi maqsadga muvofiqdir.

Muammoni yechish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga eng zarur fikrni aytmaydi, ammo shu fikrni shakllantiruvchi dalillarni, faktlarni keltirib o‘tishi, formulalarni yozishi, muammo yechimiga oid chizmalarни chizishi kerak bo‘ladi.

Muammoli vaziyatning belgilari 2-rasmida ko‘rsatilgan. Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o‘ziga xos o‘qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o‘rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. Shunday qilib, o‘qitishda muammoli vaziyat shunchaki “fikr yo‘lidagi kutilmagan

to‘sinq” bilan bog‘langan aqliy mashaqqat holati emas. U bilish maqsadlarini maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir.




2-rasm. Muammoli vaziyat belgilari

Bunday vaziyat negizida avval o‘zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog‘liq bo‘la bermasligini ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi. Yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog‘lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo‘lmaydi. Bunday mashaqqat aqliy izlanishni kafolatlamaydi. Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda o‘quvchi mashaqqat talab qilgan ob’ekt (tushuncha, fakt)ning unga avval va ayni vaqtida ma’lum bo‘lgan vazifa, masala bo‘yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab etadi.

Muammoli vaziyatdan chiqa olish hamma vaqt muammoni, ya’ni, nima noma’lum ekanligini, uning nutqiy ifodasi va yechimini anglash bilan bog‘langan. Muammoli vaziyatni fikriy tahlil qiladigan bo‘lsak, u, avvalo, o‘quvchilarning mustaqil aqliy faoliyatidir. U o‘quvchini intellektual mashaqqat keltirib chiqargan sabablarni tushunishga, unga kirish, muammoni so‘z bilan ifodalash, ya’ni, faol fikr yuritishni belgilashga olib keladi. Bu o‘rinda izchillik yorqin ko‘rinadi: avvalo, muammoli vaziyat yuzaga keladi, so‘ng o‘quv muammo shakllanadi.

O‘qitish amaliyotida boshqa variant – o‘sha muammo tashqi ko‘rinishda muammoli vaziyat yuzaga kelishiga muvofiq kelganday bo‘ladigan variant ham uchraydi. Faktlar, hukmlar nazariy qoidalar ziddiyatlari mazmunidagi savollar ko‘rinishidagi muammoning ifodasi, odatda “Nimaga?” savoliga javob bo‘ladigan muammoli vaziyatning mavjudligini aks ettiradi. Muammo uch tarki biy qismdan

iborat bo'lib, ma'lum (berilgan vazifa asosida), noma'lum (ularni topish yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladi) va avvalgi bilimlar (o'quvchilar tajribasi). Ular noma'lumni topishga yo'nalgan qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun zarurdir (3-rasm).



3-rasm. Muammoning asosiy tarkibiy qismi.

Avvalo, o'quvchiga noma'lum bo'lgan o'quv muammodagi vazifa belgilanadi va bunda uning bajarilish usullari hamda natijasi ham noma'lum bo'ladi, lekin o'quvchilar o'zlaridagi avval egallangan bilim va ko'nikmalarga asoslanib, kutilgan natija yoki yechilish yo'lini izlashga tushadi.

Shunday qilib, o'quvchilar biladigan vazifa va uni mustaqil hal qilish usuli o'quv muammosi bo'la olmaydi; ikkinchidan, biror vazifani yechish usullarini va uni izlash vositalarini bilishmasa ham o'quv muammosi bo'la olmaydi. O'quv muammosining muhim belgilari quyidagilar.

- yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladigan noma'lumning qo'yilishi;
- o'quvchilarda noma'lumni topish yo'lida izlanishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan muayyan bilim zahirasining bo'lishi.

O'quv muammosini yechish jarayonida o'quvchilar aqliy faoliyatining muhim bosqichi uni yechish usulini o'ylab topish yoki gipoteza qo'yish hamda gipotezani asoslashdir. O'quv muammosi muammoli savollar bilan izchil rivojlantirib boriladi va bunda har bir savol uning hal qilinishida bir bosqich bo'lib xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, muammoli o'qitishning zaruriy sharti o'quvchilarda haqiqatni va uning natijasini izlash jarayoniga bo'lgan ijobjiy munosabatni vujudga keltirish hisoblanadi. Muammoli o'qitishda ijodiy va qidiruv bilish faoliyati muammoli vaziyat paydo qilinganda o'quvchilar mashg'ulotda muammoni ifodalab berishlaridan iborat

bo‘ladi, ya’ni, bilishdagi qiyinchiliklar paydo bo‘lishi mohiyatini so‘z bilan ifodalab beradi. So‘ngra muammoni yechish usullarini qidiradi va bunda turli taxminlarni olg‘a suradi. O‘quvchilar haqiqiy deb topgan taxminlardan birini faraz sifatida asos qilib oladi va uni isbotlaydi. Izlanish muammo yoki vazifa bajarilgandan so‘ngtugallanadi.

O‘quv jarayonining amaliy tahlili muammosi o‘qitishning o‘ziga xosligini belgilash imkoniyatini beradi. Muammoli o‘qitishning mohiyati ta’lim oluvchi tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan axborotlarni o‘qituvchining maxsus tashkil qilishidan iboratdir.

Muammoli o‘qitishni tashkil etishning bir qator shartlari mavjud. Birinchi shart – o‘quv axborotlarini takomillashtirib borish tizimi. Ikkinci shart – muammoli o‘qitish amalga oshiriladi va unda axborotni o‘quv vazifasiga o‘tkazish vaqtida uni yechish usulini tanlash imkoniyati. Uchinchi shart – ta’lim oluvchilarning sub’ektiv mavqeい, ularning bilish maqsadlarini anglab yetishi va qaror qabul qilishi, masalani hal qilish va natijani qo‘lga kiritish uchun o‘zlarining ixtiyorida bo‘lgan vositalarni baholay bilish xususiyati.

Muammoli o‘qitishga asoslangan o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish metodikasi unda qo‘llanadigan metodlarni asoslab berishni talab qiladi. Bunda: ijodiy, qisman ijodiy yoki evristik, axborotlarni muammoli bayon qilish, axborotni muammo bilan boshlash orqali bayon qilish asosiy metodlar hisoblanadi.

Ijodiy metod ta’lim oluvchining ijodiy mustaqilligini to‘la amalga oshiradi. Unda o‘quvchi o‘qituvchining bergan vazifasini bajaradi, ayni vaqtda, o‘zi ham o‘quv muammosini shakllantiradi, gipotezani mustaqil yechishga harakat qiladi, izlanishni amalga oshiradi va pirovard natijaga erishadi.

Shu tariqa ijodiy metodni qo‘llash bilan o‘quvchilar faoliyati olimlarning ilmiy tadqiqot faoliyatiga yaqinlashadi. O‘qituvchi faqat o‘quvchilarning ilmiy izlanishlariga umumiy rahbarlik qiladi, vazifalar esa ularning mustaqil o‘quv-bilish xatti-harakatlarining to‘la davriyilagini ko‘zda tutadi: yo tahlilgacha axborotlar yig‘iladi yoki yechilishiga qadar o‘quv muammosi qo‘yiladi hamda yechimlar tekshirib ko‘riladi va yangi bilimlar joriy qilinadi.

Ijodiy metoddan o‘rganilayotgan fanning umumiy asoslarini qamrab olgan eng muhim mavzularni o‘tishda foydalanish tavsiya etiladi. Bu esa boshqa barcha o‘quv materiallarini tobora ongli o‘zlashtirilishiga olib kelishi lozim. Shuningdek, bunday metodda mashg‘ulot o‘tkazish uchun o‘qituvchi tanlagan bo‘lim yoki mavzuni o‘quvchilarning idrok qilishlariga qulay bo‘lishini nazarda tutish lozim bo‘ladi. Ta’lim jarayonida ijodiy metoddan foydalanish uzoq vaqt ni va maxsus sharoit yaratilishini talab qiladi.

O‘quvchilarning ijodiy ishlari shakliy jihatdan rang-barangdir. Ular ma’ruza matnini tayyorlash va seminarga tayyorgarlik ko‘rish, u yoki bu masalaning nazariy

holatini o‘rganish (adabiyotlar bilan birma-bir ishslash, arxiv hujjatlarni o‘rganish), ko‘rgazmali qurollar, didaktik materiallar tayyorlash va boshqalardir.

Qisman ijodiy metod murakkab muammoni bo‘laklarga ajratib, uning qulay masalalarini bosqichma-bosqich aniqlab olishda qo‘llanadi va unda hal qilingan har bir bosqich (qadam) masalaning keyingi bosqichini yechishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunda o‘quvchilar o‘quv muammosining qo‘yilishida, gipotezani taxmin qilish va isbotlashda faol qatnashadilar. Ularning faoliyati reproduktiv va ijodiy unsurlarini o‘zida qamrab oladi. Bunda o‘qitishning qidiruv (izlanish) suhbati, o‘quvchilarining javoblari va to‘ldirishlariga qo‘shimcha qilgan holda o‘qituvchining bayoni, faktlarni kuzatish va umumlashtirish usullari qo‘llanadi. Bu hollarda o‘quvchilarining reproduktiv va qidiruv (izlanish) faoliyatining muvofiqligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ular biror bosqichdagi o‘quv muammosini mustaqil hal qilishdan, to‘lardan aksariyati yechilgunga qadar kuchli o‘zgarib turishi mumkin.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda muammolilikning, asosan, uch xil darajasi (sathi) haqida fikr yuritiladi:

- Birinchi darajada o‘qituvchining o‘zi muammoni qo‘yadi, uni shakllantiradi va o‘quvchilarni mustaqil ravishda uni yechish yo‘lini qidirishga yo‘naltiradi.
- Ikkinci darajada o‘qituvchi faqat muammoli vaziyatni vujudga keltiradi, o‘quvchilar esa muammoni mustaqil shakllantiradilar va yechadilar.
- Uchinchi darajada o‘qituvchi shunday qoidani ko‘zda tutadi: muayyan muammoni ko‘rsatib bermaydi, balki unga o‘quvchilarni “ro‘baro” qiladi hamda ularni mustaqil ijodiy faoliyatga yo‘naltiradi, ularni boshqaradi va natijani baholaydi. O‘quvchilar esa muammoni mustaqil anglaydi lar, uni shakllantiradilar, yechish usullarini tadqiq qiladilar.

O‘quv muammosining qo‘yilish jarayonini osonlashtirish uchun muayyan tartibga rioya qilish lozim bo‘ladi. Yechilishi lozim bo‘lgan hamda yangi tushunchalar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan avvalgi o‘zlashtirilgan bilimlar doirasini faollashtirmasdan turib, muammoni qo‘yib bo‘lmaydi. Muammoli vazifalarni tashkil qilishdan oldin o‘quvchilarining sabab-oqibat aloqalarini o‘rnata olish usullarini egallaganligiga ishonch hosil qilish, o‘quvchilarining muammoli vaziyatni tahlil qila olish darajasini o‘rganish shartdir.

Shuningdek, o‘qituvchi o‘quvchilar e’tiboriga faqat ular uchun qulay bo‘lgan muammolarni qo‘ymasligi ham mumkin. Shu bilan birga, muammoning yechilishi uni to‘g‘ri qo‘ya bilishga ko‘p jihatdan bog‘liq ekanligini unutmaslik zarur. Bu qoidalarni amalgaloshish, avvalo, o‘quv materialining mazmun xususiyati bilan bog‘liqdir. Shuni ta’kidlash lozimki, o‘qitish jarayoni faqat “muammoli” yoki “muammosiz” metodlar yordamidagina amalgaloshish maydi, balki uning samarali borishi uchun boshqa metodlarni ham qo‘llash maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchi mashg‘ulotning maqsadi,

o‘quv materiallarining mazmunini, darsda qatnashayotgan o‘quvchilarning xarakteri, ularning tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda ularni tinglash hamda birini ikkinchisi bilan bog‘lashni amalga oshiradi. Shundagina o‘quv jarayonida yuqori samaradorlikka erishiladi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda o‘quvchilarning ijodiy faoliyati reproduktiv, qayta ishlab chiqish metodlarini shakllantirmsandan avval amalda bo‘la olmasligi ta’kidlanadi. Agar o‘rganilayotgan mavzuning mohiyatini, ulardan foydalanish qoidalarini o‘quvchilar bilmasa va anglamasa, o‘qituvchi ularning ijodiy faoliyatini tashkil eta olmaydi. Demak, muammoli o‘qitish yetarli darajada samarali bo‘lishi uchun u yaxlit o‘quv-tarbiya jarayonining uzviy qismi bo‘lishi kerak. Muammoli ma’ruzalar o‘tkazish jarayonida o‘quvchilarda ijodiy faoliyatga zarur bo‘lgan motivlar, qimmatli yo‘l-yo‘riqlar va yo‘llanmalarning shakllanganligi muhim o‘rin egallaydi. Ta’kidlash joizki, o‘quv faoliyati motivlarining doirasi juda ko‘p motivlar yig‘indisi bo‘lsa-da, ularidan ikki guruhi belgilovchi hisoblanadi. Birinchi guruhgaga maxsus motivlar taalluqli. Ular o‘quvchilar tomonidan barcha hayotiy ehtiyojlarni chuqr anglash, mutaxassis bo‘lib yetishishi uchun bilimlarni egallashning ijtimoiy zarurligini tushunishni qamrab oladi. Bu guruh motivlarini o‘qituvchi mavzuning amaliy xarakteri va kasbiy yo‘nalganligini namoyish qilish orqali o‘quvchilarning tushunchalarini amalda qo‘llash orqali kuchaytirish mumkin.

Ikkinchi guruh motivlari o‘quv fanlari va bilishga bo‘lgan qiziqish bilan bog‘langan. Bu guruh motivlari mohiyatini o‘qituvchi o‘quvchilardagi o‘quv fanlariga bo‘lgan qiziqishni bilish to‘g‘risidagi bilimlarni shakllantirish orqali kuchaytirishi mumkin.

Olingan natijalar. Olib borgan tadqiqotimizda o‘quv jarayonini takomillashtirishdagi metodlaridan biri bo‘lgan - muammoli o‘qitish jarayonidagi samaradorlikni oshirishda quyidagi natijalarga:

1. “Texnologiya” fani darslarida o‘quvchi ijodiy shaxsni – bo‘lg‘usi mutaxassisni shakllantirish nuqtai nazardan foydalanishi maqsadga muvofiqliliga;
2. muammoli o‘qitishda o‘quvchilarning bilish mustaqilligini shakllantirish va rivojlanishiga katta ahamiyatga ega ekanligiga;
3. muammoli o‘qitishda o‘quvchilarda bilimga bo‘lgan barqaror qiziqishning shakllanishiga;
4. muammoli o‘qitishda o‘quvchilarda tashabbus va mustaqil faoliyatning muntazamligiga;
5. muammoli o‘qitishda o‘quvchilarda muayyan aqliy harakatlar va aqliy sifatlar tizimida rivojlanishiga erishildi.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, muammoli vaziyat hosil qilish o‘qituvchidan alohida mahorat talab qiladi va uni ma’lum bir tizimli tayyorgarliksiz amalga oshirib

bo‘lmaydi. Muammoli vaziyatni vujudga keltirish, bu muammoni hal qilish uchun o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minalash, mustaqil fikr yuritishga jalb qilish o‘qituvchidan ijodkorlikni talab etadi. Muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida o‘quvchilar manbalardan unumli foydalanish orqali mustaqil fikrlash va mustaqil tafakkur yuritishga o‘rganadi. Muammoli vaziyatni tashkil qila olish esa o‘qituvchi innovatsion faoliyatining natijasi sifatida amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Jumaev U.S. O‘smirlarda kasb tanlashga munosabat tizimini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik asoslari: Psix.fanl nomz. ... dis.avtoref. – Toshkent, 2004. – 21 b.
2. M.Z.Murtozayev. Texnologiya ta’limini o‘qitish uslubi. Xrestomotiya shaklidagi qo‘llanma o‘quv qo‘llanma. –T.: “Fan va texnologiya”, 2018, -998 b.
3. Jumaev U.S. O‘smirlarda kasb tanlashga munosabat tizimini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik asoslari: Psix.fanl nomz. ... dis.avtoref. – Toshkent, 2004. – 21 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va urta maxsus ta’lim vazirligi 5112100 - Texnologik ta’lim bakalavriat ta’lim yunalishining malaka talablari.